

**Nilufar TOSHEVA,**  
*Navoiy innovatsiyalar universiteti katta o'qituvchisi*  
*E-mail:toshevan@mail.ru*  
*Tel:+998973252012*

*Filologiya fanlari doktori, dotsent T.Kuchkarov taqrizi asosida*

## WRITTEN LITERATURE AND FAIRY TALES (IN THE EXAMPLE OF THE NOVEL "LIFES PASSED IN A DREAM")

Аннотация

The article examines written literature and fairy tales on the example of the novel "Tushda kechgan umrlar". In this scientific article, special attention is paid to the genre of fairy tales, and the role of written literature in the preservation and formation of cultural narratives is studied. Using O'tkir Hashimov's novel "Dreams of Past Lives" as an example, the essay reveals the importance of fairy tales as a means of transmitting cultural values, beliefs, and imaginary narratives to generations. The article begins by introducing fairy tales as a genre of written literature that has been a part of human storytelling for centuries and has served a variety of functions, including entertainment, moral guidance, and preservation of cultural norms. "Lifetimes spent in a dream" is an ideal example to express these ideas.

**Key words:** Written Literature, Fairy Tales, "Tushda kechgan umrlar", Cultural Identity, Folklore, Moral Lessons, Imagination, Preservation, Shaping

## YOZMA ADABIYOT VA ERTAK ("TUSHDA KECHGAN UMRLAR" ROMANI MISOLIDA)

Аннотация

Maqolada "Tushda kechgan umrlar" romani misolida yozma adabiyot va ertaklar o'rganilgan. Ushbu ilmiy maqolada ertak janriga alohida e'tibor qaratilib, yozma adabiyotning madaniy rivoyatlarni saqlash va shakllantirishdagi o'rni o'rganiladi. Ocherkda O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romanidan namuna sifatida foydalanib, ertaklarning madaniy qadriyatlar, e'tiqodlar, xayoliy rivoyatlarni avlodlarga yetkazish vositasi sifatidagi ahamiyati chuqurroq ochib berilgan. Maqolada ertaklarni yozma adabiyotning bir janri sifatida tanishtirishdan boshlanadi, u asrlar davomida insoniyat hikoyachiligining bir qismi bo'lib, turli funktsiyalarni bajaradi, jumladan, o'yin-kulgi, axloqiy yo'l-yo'riq va madaniy me'yorlarni saqlash. "Tushda kechgan umrlar" ana shu fikrlarni ifodalash uchun ideal misol sifatida keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Yozma adabiyot, ertaklar, "Tushda kechgan umrlar", Madaniy o'ziga xoslik, xalq og'zaki ijodi, axloq saboqlari, tasavvur, asrab-avaylash, shakllantirish

## ПИСЬМЕННАЯ ЛИТЕРАТУРА И СКАЗКИ (НА ПРИМЕРЕ РОМАНА « ТУШДА КЕЧГАН УМРЛАР »)

Аннотация

В статье рассматривается письменная литература и сказки на примере романа «Тушда кечган умрлар». В данной научной статье особое внимание уделено жанру сказки, изучена роль письменной литературы в сохранении и формировании культурных нарративов. На примере романа Откира Гашимова «Сны прошлых жизней» в очерке раскрывается значение сказок как средства передачи культурных ценностей, верований и воображаемых повествований поколениям. Статья начинается с представления сказок как жанра письменной литературы, который на протяжении веков был частью человеческого повествования и выполнял разнообразные функции, включая развлечение, моральное руководство и сохранение культурных норм. «Жизни, проведенные во сне», являются идеальным примером для выражения этих идей.

**Ключевые слова:** письменная литература, сказки, «Тушда кечган умрлар», культурная идентичность, фольклор, уроки морали, воображение, сохранение, формирование.

**Kirish.** Ertak janri og'zaki ijodning eng ommabop janrlaridan biridir. Ertaklarda mehnatkash xalqning eng yaxshi sifatleri, insonparvarlik, vatanparvarlik, do'stga sadoqati yorga vafodorlik, shu yo'lda qahramonlik, jasorat ko'rsatish kabi fazilatlar hikoya qilib beriladi, axloq qoidalari ulug'lanadi, zulm va zoravonlik qoralanadi. Ularda vafodorlik, yaxshilik, ezgulik, mehnatkashlik tuyg'ularining insonlar hayotidagi muhim o'rni tarannum etiladi. Ertaklardagi g'oya va fikrlar kitobxonda kelajakka ishonch, hayotga muhabbat tuyg'ularini uyg'otadi. Xalqimiz bunday ertaklarni yaratar ekan, ularning syujetiga o'z g'oyalarini, orzularini, umidlarini singdiradi. Hammamizga ma'lumki, ertaklar zamonlar o'tishi bilan, davrlar, odamlar o'zgarishi bilan ularning syujeti ham o'zgarib boradi. Ertaklardagi zamon, maqsad, odamlar ham shunga qarab o'zgaradi. Avval yaratilgan ertaklarimizda ko'proq xalqimizning podshohlardan, zodogon amaldorlardan shikoyat va noroziliklari aks etgan bo'lsa, keyingi davr ertaklarida insonlar orasidagi muammolar, yaxshi va yomon vaziyatlar ko'zga tashlanadi.

Badiiy adabiyot yozuvchining yoki shoirming hayotiy kuzatishlari asosida yuzaga keladi. Ijodkor asariga masalliqni xalq orasidan oladi. Shuning uchun ham badiiy adabiyotda yaratilgan ba'zi asarlarni o'qiganimizda undagi voqealarni xuddi o'zimiz boshimizdan o'tkazayotganday bo'lamiz. Asarlarning bunday jonli, ishonarli chiqishiga sabab ijodkor bu asariga milliy ruhiyatimizni va milliy ma'naviyatimizni singdirganida. So'ngi yillarda adabiyot sohasida yaratilgan asarlarning deyarli barchasida milliylik sezilib turadi. Ijodkor asarida xalqimiz yaratgan og'zaki ijod namunalaridan foydalanar ekan, ularning har biri ma'lum bir badiiy maqsad kasb etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** "Folklor va adabiyot munosabatlariga doir aksariyat tadqiqotlarda biryoqlamalik ko'zga tashlanadi, ayrim ishlarda asosiy diqqat yozma adabiyot bilan bog'liq muommolarga yo'naltirilib, folklorizmlar faqat badiiy vosita sifatida qaralsa, ayrimlarida folklorizmlar doirasi shu darajada keng tushunildiki, natijada individual ijodkor mahorati folklorizm soyasida qolib ketadi"[1].

Ijodkorning folklorizmlardan o'rinni foydalana olishi, abatta, uning bilim va mahoratiga bog'liq, chunki ijodkor folllor janrlarini yaxshi bilsagina undan foydalana oladi. Bu janrni nega, nima maqsadda foydalanayotganini anglagan holda undan foydalanishi kerak. Yozma adabiyotda hech bir folklor janri yoki unsuri bemaqsad qo'llanmaydi. Ular ham asarning qaysidir jihatini ochib berish vazifasini bajarar olishi kerak.

O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romanida yozuvchi asari qahramoni Qurbonoy xola tilidan ikkita ertak keltirib o'tadi. Xo'sh, ijodkor nega bu asarga bunday ertakni kiritdi, bunda yozuvchi maqsadi nima edi? Bu ertaklar qo'shilmaganda asar syujetida yoki ma'nosida qanday o'zgarish bo'lardi-yu, qo'shildi qanday badiiy ahamiyati bor? Buni yozma adabiyot va folklor mutunosibligi asosida tahlil qilib chiqamiz.

"Bir bor ekan, bir yo'q ekan, Qadim zamonda yetti iqlimni so'raydigan podshoh o'tgan ekan. Podshohning Xudodan tilab-tilab olgan yakka-yolg'iz o'g'li bor ekan. Bola – bari bolada! Bir kuni sho'xlik qilib, daraxtga chiqibdi. Yiqilib boshi yorilibdi. Podshoh chopib borib, o'g'lini yerdan ko'tarib olibdi. Qarasa, bolasining yorilgan peshanasida "nikoh kuni bo'ri yeydi" degan yozuv bormish. Podshoh bu sinoatni hech kimga aytmabdi. Tabiblar bolani tez kunda tuzatib yuborishibdi. Ammo o'g'li katta bo'lgan sayin podshohning ko'ngliga g'ulg'ula tushaveribdi. Yurtidagi bo'rilarini qirib tashlashga farmon beribdi.

Oradan oy o'tibdi, yil o'tibdi. Podshoh shahzodani uylantiradigan bo'libdi. Oy desa, yuzi, kun desa, ko'zi bor kelin topishibdi. To'y kuni podshoh saroyning atrofiga mingta soqchi qo'yibdi. Kuyov bilan kelin birga bo'ladigan kuni ostonada o'zi poylab o'tiribdi. Bir mahal ichkaridan dod-faryod eshitilibdi. Podshoh qilichini yalong'ochlab kirsada, kelin-kuyovning bo'g'zini g'ajab turganmish. Podshoh bu nima qilganing deb kelinning boshida qilich ko'tarsa, kelin aytibdi: "Nima qilganimni o'zim ham bilmayman osmondan: "sen bo'risan, yoningdagi qo'zichoqni yeyishing kerak", degan nido keldi", – debdi[2].

O'tkir Hoshimov asar orasiga nega bu ertakni qo'shgan, bundan yozuvchining badiiy maqsadi nima edi? Asar qahramoni bo'lgan Qurbonoy xola imonli-e'tiqodli ayol bo'ladi. Uning bolaligi ayanchli o'tgandi. Qurbonoy xolaning bobosi eshon edi, o'sha davrdagi dinga qarshi siyosat natijasida u surgun qilingan. Otasi tuhmatga uchrab qamaladi. Soat G'aniyevich sovet davridagi mash'um ishlarni ijro etuvchi edi. U sovetlar tomonidan berilgan barcha topshiriqni so'zsiz bajarardi. Soat G'aniyevich Qurbonoy xolaning onasini uning ko'z oldida tahqirladi. Onasi Fotima bu isnodga chiday olmay o'zini osdi. Qurbonoyni tog'alari boqib olishdi. Qurbonoy xola yosh bo'lsa-da, boshidan shu ayanchli ko'rguliklar o'tdi. Butun maktabi uni xalq dushmanining qiziga aylantirdi. Ammo Qurbonoy xola Xudo peshonamga shuni yozgan, shuning uchun shuni yashashim kerak der edi. Har doim Xudoga shukr qilardi. Boshidan shuncha ko'rguliklar o'tsada, hech Xudoga nola qilmabdi. Adib bu romanida "inson peshonasida yozilganidan qutula olmaydi" degan fikrni o'quguvchiga anglatmoqchi bo'lgan. Shu maqsadda bu ertak Qurbonoy xola nutqidani keltirilgan. Inson taqdirini o'zgartirishga ming harakat qilmasin, uning qo'lidan unga bo'y sunushdan boshqa hech narsa kelmaydi. Ertakdagi podshoh ham o'g'lini asrab qolishga yillar bo'yi kurashdi, ammo o'g'lining taqdirida nikoh kuni bo'ri yeyishi yozilgandi bu narsa bo'ldi. Bu deganiki, inson ko'p harakat qilmasin peshonasida bitilgan bo'ladi.

Yozuvchi bu ertakni roman g'oyasiga mos ravishda tanlagan bo'lib, bu folklorizmning go'zal namunasi bo'la olgan. Romanda adib ikkinchi bir ertakni keltiradi. U ham asar uchun ma'lum bir vazifa bajargan:

"Bir kuni haj safaridan qaytayotgan karvon shaharga yaqin joyda to'xtab, dam olibdi. O'sha yerda buloq bor ekan. Suv ichishibdi. Salqinlab, hordiq chiqarishibdi ... Karvonda uchinchi marta haj qilgan nuroniy chol ham bor ekan. Chol safar bo'yi hammaning hojatini chiqargan, donishmand odam ekan. Bir mahal shahar tomondan bitta otliq yelib kelibdi. Bo'za ichib olgan, mast yigit otidan sakrab tushibdi-da yugura kelib, cholni tarsakilab yuboribdi. Karvondagilar yigitni o'rab olishibdi. "Bu odam senga nima yomonlik qildi?" – deyishsa, mast yigit indamasdimish. Odamlar uning adabini bermog'chi bo'lib shaylanib turgan ekan, chol ularni shashtidan qaytaribdi. Tegmanglar bu – mening o'g'lim bo'ladi", – debdi. Odamlar battar g'azabga minibdi. "bu qanday farzandki, o'z otasiga qo'l ko'tarsa!" "Mayli, – debdi chol shunda. – Bu bolada ayb yo'q. Menda ham gunoh yo'q. Otamning jazosi menga qaytdi. Bolaligimda qulog'imga chalingan edi; bir vaqtlar otam yoshlik qilib buvamni urgan ekan. O'shanda buvam duoyibad qilgan ekan..."[2]

Adib asarning bu qismida ushbu ertakni nega keltirgan? Bundan ko'zlangan badiiy maqsad nima edi? Bizga ma'lumki, xalqimiz orasida Yoshi ulug'larimiz qadrlanadi, ularning so'zlariga quloq tutuladi. Ularning yoshlarimizga bergan o'gitlari, nasihatlari ulug'lanadi. Bobolarimiz, buvilarimizning: "Yoshi ulug'larni, ota-onangni hurmat qil, ularning dilini og'ritma, ularning duolarini ol, qarg'ishlarini hech qachon olma!" – degan nasihatlarini ko'p bora eshitamiz. So'z – shu qadar katta kuchga egaki, u inson uchun har narsaga qodir.

"Qarg'ish – qarg'ish iborasi, qarg'ish ifodali gap so'z. Yomon qarg'ish. Yengil qarg'ish. Qarg'ish eshitmoq. Qarg'ishga qolmoq – qilmishiga yarasha qarg'ish eshitish, la'nat ostida qolmoq"[3].

Asar qahramoni Soat G'aniyevich hayoti davomida juda ko'p jirkanch ishlarga qo'l urdi. U hech narsadan, hech kimdan qo'rqmasdi. Go'yoki o'zini vatanparvar shaxs sanardi, lekin bilmasdiki, sovet hukumatining yugurdagi ekanligini, o'z xalqining dushmanligini. U qanchadan qancha begunoh, vatanga sodiq insonlarni qamadi, o'ldirtirdi. Qurbonoyning boshiga tushgan kulfatlarga ham shu odam sababchidir. Soat G'aniyevich dinga ishonmasdi, ammo u boshiga tushgan voqealarga, go'yoki Qurbonoyning qarg'ishlari sabab deb biladi. U: "Har namozingda meni qarg'aysanmi?" – deb so'rashidan ham buni bilishimiz mumkin. Yuqorida keltirilgan ertakda qarg'ishning insonlar ongida qanchalik tafakkur etilishi aks etadi. Kitobxonga qahramonni nima qo'rqitishini ko'rsatib beradi. Soat G'aniyevichning xotini Nazira farzandiga homilador bolganida turmush o'rtog'ining qilayotgan ishini noto'g'ri ekanligini biladi, shuning uchun ham u bolasiga "qarg'ish uradi" deb o'ylaydi. Xotini, Nazira, bu haqida gapirganida Soat G'aniyevichning ko'z oldiga Fotima, Hasanlar ularning yig'lab yulvorishlari-yu, uni Xudoga solganligi kelib ketadi.

O'tkir Hoshimov roman ichida ertaklarni hech o'zgarishsiz keltirgan.

"Analitik folklorizmlarning shakl masalasiga kelganda shuni aytish kerakki, u ijodkorning maqsadi, uslubi, folklor materiallarini bilish darajasi bilan bog'liq holda badiiy asar tarkibida ikki xil shaklda uchraydi:

a) folklorizm o'zining folkloridagidek to'liq shaklida;

b) folklorizm mazmunan saqlansa ham, biroq shaklan o'zgartirilgan ko'pincha, qisqartirilgan, ishlov berilgan holda keltiriladi.

Har ikki shaklda ham ular asar g'oyasining to'liqroq ifodalanishiga xizmat qiladi"[1]. Ertaklar aynan folklorida o'zgarishsiz keltirilgani uchun analitik folklorizm deb olishimiz mumkin.

Xulosa o'rinda ertaklar asarlarda sintezlashgan shaklda ham analitik shaklda ham uchrashi mumkin. Ammo ular qanday shaklda keltirilsa-da, ular bir maqsadga xizmat qiladi. Folklorizmlar asar qahramonlarining xarakterlarini ochib berish, ruhiyatini, ma'naviyatini kitobxonga anglatish uchun asar syujetini boyitish uchun xizmat qiladi. Ularning barchasi ijodkor badiiy maqsadini to'liq, aniq ifodalab berish vazifasini bajaradi.

## ADABIYOTLAR

1. Sarimsoqov Bahodir. Folklorizmlar tipologiyasi masalasiga doir.//O'zbek tili va adabiyoti. - Toshkent, 1982.No2. - B.

2. O'tkir Hoshimov. Tushda kechgan umrlar. - T.: Nurli dunyo nashriyot uyi, 2022. - B.134-135.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. To'rtinchi jild. G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. - Tashkent, 2022. - 75-  
bet.